

Qoraqalpog'iston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlari


2025-yil yanvar-iyul oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- IV. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- V. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-iyul oylarida, Qoraqalpog'iston Respublikasida jami 5 479,8 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 106,9 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



2025-yilning yanvar-iyul oylarida shahar va tumanlar kesimida, xususan, Nukus shahri (1 064,7 mlrd so'm), To'rtko'l tumani (443,1 mlrd so'm) va Ellikqal'a tumanida (354,8 mlrd so'm) qurilish ishlaringin yuqori hajmi qayd etildi.

Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati

	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Qoraqalpog'iston Respublikasi	5 479,8	106,9
Nukus shahri	1 064,7	103,5
tumanlar		
Amudaryo	229,3	103,2
Beruniy	282,5	108,3
Bo'zotov	50,9	124,0
Qorao'zak	59,2	117,7
Kegeyli	78,0	104,7
Qo'ng'irot	171,9	103,0
Qonliko'l	54,0	115,4
Mo'ynoq	126,7	63,3
Nukus	209,5	107,5
Taxiatosh	193,9	112,9
Taxtako'pir	59,0	141,5
To'rtko'l	443,1	101,0
Xo'jayli	221,4	106,9
Chimboy	95,1	118,9
Shumanay	61,7	142,6
Ellikqal'a	354,8	112,9

**II. Umumiylajmi yangi qurilish, rekonstruksiya,
kengaytirish, texnik qayta jihozlash ishlari**

Bajarilgan qurilish ishlaringin katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaringin 72,7% i yoki **3 982,9** mlrd so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan. Jumladan:

Yirik qurilish tashkilotlari – **232,0** mlrd so'm, jamiga nisbatan ulushi – **5,8** %;

Kichik korxona va mikrofirmalar – **1 940,7** mlrd so'm hamda ulushi – **48,8** %;


Norasmiy sektor – **1 810,2** mlrd so'm hamda ulushi – **45,4** %.

III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari


2025-yilning yanvar-iyul oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 68,1 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 93,8 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 24,6 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 142,6 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 7,3 % ulushni va 2024-yilning mos davriga nisbatan 195,1 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



IV. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar-iyul oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 467,2 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 88,4 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 1,9 % ga kamayib, 8,5 % ni tashkil etdi.

2025-yilning yanvar-iyul oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 55,1 % i to'g'ri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 1,2 % ga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 109,9 % ni tashkil etgan holda 3 020,3 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

**Shahar va tumanlar kesimida korxona turlari bo'yicha
bajarilgan qurilish ishlari**

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Qoraqalpog'iston Resp.	467,2	3 020,3	1 992,3	88,4	109,9	107,8
Nukus shahri	31,0	918,0	115,7	51,0	105,7	116,6
<i>tumanlar</i>						
Amudaryo	4,8	123,1	101,4	36,7	109,0	105,4
Beruniy	12,3	170,6	99,6	210,0	107,1	104,0
Bo'zotov	2,4	39,4	9,1	91,4	134,6	99,0
Qorao'zak	11,8	32,6	14,8	226,5	102,8	110,1
Kegeyli	8,9	51,6	17,5	49,9	122,0	122,4
Qo'ng'irot	53,9	86,0	32,0	76,7	131,7	102,6
Qonliko'l	4,4	12,7	36,9	150,0	180,3	100,0
Mo'ynoq	35,8	75,4	15,5	30,6	109,7	108,2
Nukus	9,8	124,4	75,3	148,0	108,8	101,8
Taxiatosh	42,9	125,1	25,9	134,8	108,6	104,7
Taxtako'pir	16,0	31,0	12,0	753,8	105,5	117,7
To'rtko'l	43,4	262,9	136,8	80,4	115,8	106,2
Xo'jayli	2,1	166,0	53,3	113,3	105,3	112,2
Chimboy	3,5	32,5	59,1	67,6	147,9	111,8
Shumanay	9,5	32,1	20,1	327,8	139,1	115,9
Ellikqal'a	40,7	246,9	67,2	173,8	108,3	107,0

Norasmiy sektorda qurilish ishlaring ulushi 36,4 % ni yoki 1 992,3 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 107,8 % ni tashkil etdi. Shundan 1 808,7 mlrd so'mi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga to'g'ri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 107,6 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 1,5 mlrd so'mni, yakka tartibdagi turar-joylarni ta'mirlash ishlari 182,1 mlrd so'mni tashkil etdi.



V. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmag'an holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- c) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi Davlat kadastrlari palatasining Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi statistika hisobotlari;
- d) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuvi ma'lumotlari;
- e) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Tayyorlash uchun mas'ul:
Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
D. Abdullaeva

Manzil:
230103, Nukus, A. Dosnazarov
ko'chasi, 97 a-uy
Pochta: info@qrstat.uz
Tel.: +998 (61) 222-75-91
